

## THE NEED TO STRENGTHEN THE IDEOLOGICAL IMMUNITY OF THE YOUNGER GENERATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

A. Meliboyev,  
QDPI

### Annotation

This article highlights the importance of national ideology in the current battle of ideologies under the influence of globalization and the fact that there is no force that can replace it.

Globalashuv jarayoni natijasida yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasida chegaralarning, bir so'z bilan aytganda, hayotga, tiriklikka xos xilma-xillik tobora kamayib borayotganini, insoniyatning eng kuchli, eng qudratli qurol– turli shaklu-shamoyil kasb etayotgan g'oya va mafkuralardan ta'sirlanayotgani oqibati ekani tobora oydinlashib bormoqda. G'oya o'ziga xos tizimni shakllantirish xususiyatiga ega bo'ladi. Agar ana shu tizim to'liq shakllanib, takomillashsa, u mafkuraga aylanadi. Shuning uchun mafkuraning shakllanishi g'oyaning shakllanishiga nisbatan uzoq davom etadigan murakkab jarayondir.

Mafkuraning hayotbaxsh kuchi, avvalo, insonning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini qanday tushunish va uni qanday ijtimoiy maqomda tasavvur etishga bog'liq. Chunki insonni ijtimoiy harakat va faoliyatga undash, shu tariqa ko'zlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha mafkuralarning ma'no-mohiyatini tashkil etadi. Mafkuraga xos xususiyatlar xaqida R.Z.Jumayev: "Mafkura muayyan maqsadlar yo'lida o'zaro ta'sirda bo'ladigan insonlar o'rtasidagi munosabat, kishilarning o'zini va boshqalar o'rtasidagi o'rni anglashi, baholashi va shu asosda mavjud ijtimoiy munosabatlar rivojiga yoki aksincha, uning barham topishiga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatlarining modeli"– deb baholaydi. Globalashuv jarayonining boshlanishi Internet, axborot texnologiyalari davri bilan bog'liq. Bu davrning o'ziga xos jihatlaridan biri bu – mafkura ob'ektlarining ma'lum vaqtga ikki yoki undan xam ortiq mafkura ta'sirida bo'lishi bilan xarakterlanadi. Globalashuv asrida esa aynan mafkura markaziy o'rinni egallaydi. Darhaqiqat, bugungi globalashuv jarayonida har bir davlat o'zligini saqlab qolgan holda, kelajakka intilish maqsadida turli xil yo'l va usullardan foydalanmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu borada misol tariqasida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Mana, Germaniya, Yaponiyani oling. Bundan 50-60 yil oldin ular bugun erishgan taraqqiyotni faraz qilishi ham qiyin edi. Nima hisobidan ular jahon maydoniga chiqdi, butun dunyo hurmat qiladigan etakchi davlatlar qatoridan o'rin oldi? Bu davlatlarda avvalambor xalq birlashdi. Milliy g'urur, milliy iftixor, ertangi kunga mustahkam ishonch paydo bo'ldi. O'z oldiga qo'ygan marralarga erishish uchun zarur dasturlar ishlab chiqildi, odamlar, butun millat bir tanu

bir jon bo‘lib, mayli, besh yil, o‘n yil bo‘lsayam, yigirma yil bo‘lsayam qattiq ishlaymiz, lekin shu darajaga etamiz, degan yagona maqsad bilan yashadi”. Darhaqiqat, yapon xalqi ham iqtisodiy, ham zamonaviy va milliy o‘zligini saqlab qolmoqda.

Globalashuv jarayonida insonlar, xalqlar, jamiyat va zamonaviy sivilizatsiyalar mafkuraga ehtiyoj sezadi. Xususan, A.Norboev “g‘oyalarning amalga oshishini ta‘minlovchi usullar, vositalar, mexanizmlar tizimi – mafkura demakdir”– deb ta‘kidlaydi. Milliy mafkura ham ma‘lum makonda va zamonda paydo bo‘lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo‘shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o‘z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo‘qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi mumkin”.

Xalqaro munosabatlarni milliy mafkuraning yurt tinchligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik g‘oyalari asosida mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqining ma‘naviy va tarixiy qadriyatlarining tiklanishi milliy o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zligini anglashning, milliy davlatchilikni mustahkamlash va rivojlantirishning, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni muvafaqqiyatli o‘tkazilishining va shubhasiz, milliy mafkurani shakllantirishning negizidir. “Yaqin o‘tmishimizning yana bir sabog‘i shuki, millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo‘layotgan pallada o‘zligimizni anglash, ma‘naviy ildizlarimizni unutmaslik katta ahamiyatga ega. Moddiy etishmovchilik, albatta, og‘ir sinov, lekin unga mehnat bilan, sabr-toqat bilan bardosh bersa, engib o‘tsa bo‘ladi, ammo ma‘naviy inqiroz, ma‘naviy qashshoqlikdan, ularning oqibatidan – millatlararo nizolardan, birodarkushlik qirg‘inlaridan xudoning o‘zi asrasin”. Milliy mafkura esa, o‘z navbatida, dunyoga mashhur o‘tmish merosni va umuminsoniy qadriyatlarni sintez qilishi, odamlarning, xususan, yoshlarning millatidan qat‘iy nazar qalbida kelajakka ishonch tug‘dirishi, Vatanga muhabbatini, ilm va ma‘rifatga intilishni tarbiyalamog‘i lozim. Yuqoridagi fikrlarimizni xulosalab shuni aytish mumkinki, globalashuv jarayoni er yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog‘lab qo‘ymoqdaki, buni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta‘sirini kamaytirish va ijobiy ta‘sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglagan, uning xususiyatlarini o‘rgangan holda milliy g‘oyaga suyanish va asoslanish lozim. Chunki milliy g‘oya xalqni birlashtirib, jamiyatni jipslashtiruvchi, chetdan bo‘layotgan g‘oyaviy, ma‘naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Globalashuv sharoitida milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashviqot qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishdir.

Yuqoridagi fikrlarni xulosalab aytganda globallashuv asri hisoblangan XXI asrda mafkura jamiyatni o'tmish, bugun va kelajak bilan bog'lovchi analiz chizig'i hisoblanib, insonlarni hayotning mazmunini chuqurroq anglashga, kelajakka o'z kuchi va bilimiga ishongan holda, bir mafkura atrofida birlashib, orzularni amalga oshirishga undaydi. Mafkuraviy islohotlardan asosiy maqsad esa xurmatli O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir". Demak, har qanday jamiyat, har qanday xalq va davlat tarixiy taraqqiyotning muayyan davriga xos iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyot tamoyillariga ega bo'lgani singari, o'z rivojining pirovard maqsadlariga xizmat qiladigan g'oya va mafkuraviy tamoyillarga ham ega bo'lishi zarur.